

ODAM SAVDOSI QURBONI BO'LGAN INSONLARNING PSIXOLOGIK O'ZIGA HOSLIGI

**Urganch shahri bo'yicha IIO FMB 3-sonli IIIB boshlig'i mayor
Raximov Muxammad Baxtiyarovich**

Annotatsiya: Ushbu maqolada odam savdosi qurbanini bo'lgan insonlarning o'ziga hos psixologik jihatlarining ilmiy nazariy hamda amaliy tavsifi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Odam savdosi, deviant, xavfli xulq-atvor, avanturizmga moyillik, travma, yolg'izlik, psixologik jarohat.

Аннотация: В этой статье приводится как научное теоретическое, так и практическое описание конкретных психологических аспектов людей, ставших жертвами торговли людьми.

Ключевые слова: Торговля людьми, девиантное, рискованное поведение, склонность к авантюризму, травма, одиночество, психологическая травма.

Annotation: This article provides both a scientific theoretical and a practical description of the specific psychological aspects of people who have become victims of human trafficking.

Keywords: Human trafficking, deviant, risky behavior, adventurism, trauma, loneliness, psychological trauma.

Ma'lumki, inson xuquqlari va manfaatlarini ta'minlashning birinchi va ustuvor vazifalaridan biri bu inson hayotini aziz deb bilmoq va jamiyat a'zolarini bunday xurujlardan himoya qilmoq zarur. Mazkur vazifa bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bulib qolmoqda. Inson xuquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilanganidek, hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas, qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi. Ana shunday qul savdosining zamonaviy ko'rinishlari bugungi kunda biroz o'zgargan shakllarda namoyon bo'lmokda. Ayniksa mazkur jinoyat boshka jinoyatlarning yanada keng yoyilishi uchun sharoit yaratib berish bilan birgalikda, odam savdosi jinoyatlari oqibatida ayrim jinoiy uyushmalar misli kuirilmagan darajada boylik orttirmoqdalar.

Bunugni kunda hayotda sodir bo'layotgan turli jarayonlar inson psixikasiga tasir qilmasdan qolmaydi. Ayniqsa ohirgi yillarda odam savdosi jinoyatchiligidan jabr ko'rgan insonlarning ruhiyatida o'ziga hos tarzda o'zgarishi bir qancha ma'lumotlarda dalillanadi.

"Odam savdosi – insonni oldi-sotdining ob'yekti sifatida foydalanish va ekspluatatsiya qilish ko'rinishidagi global jinoyat. Jinsi, yoshi va kelib chiqishidan qat'iy nazar har qanday shaxs ushbu hudud va chegara bilmas jinoyat qurbaniga aylanishi mumkin, Odam savdosiga qarshi dunyo miqyosida kurash olib borish 2005 yildan buyon AQSh hukumati AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)

Orqali O'zbekistonda odam savdosi to'g'risidagi xabardorlik darajasini oshirish va undan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish uchun 9.6 million dollardan ziyod miqdorda mablag' ajratdi". O'zbekiston va xorijiy davlatlarda odam savdosidan jabrlangan shaxslarni aniqlash maqsadida, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi hamda mahalliy sheriklar, jumladan Komissiya a'zosi bo'lgan "Istiqlol Avlod" nodavlat notijorat tashkiloti bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Yaqinda esa AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) ko'magida Jizzax shahrida migrantlar uchun mo'ljallangan axborot-resurs markazi ishga tushirildi. Markazda odam savdosidan jabrlangan shaxslarni aniqlashga yordam berish bilan bir qatorda, mehnat migrantlari va ularning oila a'zolariga maslahat xizmatlari ko'rsatiladi va foydali ma'lumotlar taqdim etiladi. Odam savdosidan jabrlangan shaxslar aniqlangandan so'ng AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) ularni vataniga xavfsiz tarzda qaytarish va jamiyatga qayta integratsiyalashishda ko'maklashadi. Mamlakatga qaytgan migrantlar, shu jumladan, odam savdosidan jabrlangan shaxslarga psixologik xizmatlar, huquqiy maslahatlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va kasbiy ta'lim olish imkoniyatlari taqdim etiladi. Reabilitatsiya xizmatlaridan tashqari, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) odam savdosi jabrlanuvchisiga aylanib qolish xavfi ostida bo'lgan guruhlarga kiruvchi shaxslarga ham yordam ko'rsatadi. AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) ning 'Markaziy Osiyoda xavfsiz migratsiya' loyihasi doirasida biz mehnat migrantlari va xavf ostidagi guruhlarga kiruvchi shaxslar orasida qonuniy ishga joylashish yo'llari, shuningdek, xorijiy davlatlarda ularning huquq va majburiyatlarini to'g'risidagi xabardorlik darajasini oshirish bilan bog'liq ishlarni amalga oshirib kelmoqda[1].

Odamlarning qul bo'lishining asosiy sababi - qashshoqlik. Ko'pincha, asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun mablag' etishmasligi, beqaror daromad, ish etishmasligi va oilani boqish imkoniyati yo'qligi sababli, odam turli xil mehnat sharoitlariga, ba'zan esa eng g'ayriinsoniy sharoitlarga rozi bo'lishga majbur bo'ladi.

Bundan tashqari, xavf omillariga quyidagilar kiradi:

- ta'limning etishmasligi (yoki past darajasi);
- deviant, xavfli xulq-atvor, avanturizmga moyillik;
- huquqiy savodxonlikning pastligi;
- oiladagi noqulay turmush sharoiti;
- oilaning yo'qligi;
- aqliy va jismoniy anormalliklarning mavjudligi.

Zamonaviy jamiyatda noqonuniy migratsiya muammosi juda keskin. Ushbu turkum ko'pincha qurbanlikka duchor bo'ladi, chunki chet elda noqonuniy vaziyatga tushib qolgan odamlar odam savdosi bilan shug'ullanadigan jinoiy jamoalarning ta'siriga qarshi tura olmaydilar. Muhojirlarning hujjalarnini olib qo'yishadi, bekorga, yegulik uchun ishlashga majburlanadi, kaltaklanadi, zo'rланади, о'лдинади.

Odam savdosining potentsial qurbanining ma'naviy-psixologik hususiyatlari va belgilariga quyidagilar kiradi.

- odam savdosi jabrdiydalarining ruhiy tushkun turi, ya'ni o'zini saqlab qolish instinkti bostirilgan va bunday instinktdan butunlay mahrum bo'lgan shaxslar osonlik bilan zo'ravonlik va aldashga duchor bo'lismasi;

- jabrlanuvchining ochko'z turi. U odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar uchun oson o'ljadir, chunki foyda olishga bo'lgan haddan tashqari ishtiyoq aqlga, hayotiy tajribaga va ichki ovozga soya soladi;

- yolg'izlik va "yurak ezilgan" qurbanlar, chunki yolg'izlik insonning aqliy qobiliyatining zaiflashishiga olib keladi, odam savdogarlar uchun oson o'ljaga aylanadi;

Odam savdosi qurbanlarining aksariyati bir yoki bir nechta travmatik hodisalarni boshdan kechirgan va ushbu hodisalarning oqibatlarini yengishga yordam beradigan psixologik usullardan foydalanishih lozim. Ushbu reaktsiyalarni tushunish uchun birinchi navbatda travma nima ekanligini tushunish kerak.

Travma nima? Travmaning mohiyati shundaki, u jabrlanuvchida moslashishning psixologik va biologik mexanizmlarini bildiradi. Bu tashqi tahdidni yengish uchun ichki va tashqi resurslar yetarli bo'limganda sodir bo'ladi.

Odam savdosi qurbanlari boshdan kechiradigan travmatik oqibatlar ko'pincha murakkab, ko'p va uzoq vaqt davomida sodir bo'lishi mumkin. Ko'pgina odam savdosi qurbanlari uchun zo'ravonlik yoki boshqa travmatik hodisalar odam savdosi jarayoni boshlanishidan ancha oldin boshlanishi mumkin. Odam savdosi bilan bog'liq jarohatlar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan, ammo ular kam. Hozirda Tadqiqot asosan jinsiy savdoga e'tibor qaratadi, lekin har doim ham qurbanlarning kelib chiqishini hisobga olmaydi. Bu bilan birga ushbu tadqiqotlar, ayniqsa, ko'rib chiqilsa, bir qator tavsiyalar va xulosalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ichki ishlari mutaxassis sifatida quyidagicha fikrlash mumkin.

Odam savdosining ikki qurbanbi bir-biriga o'xshamaydi va odam savdosining ta'siri har bir insonga turlicha ta'sir qiladi. Muayyan odam qanday munosabatda bo'lishi yoki qanday munosabatda bo'lishi kerakligini oldindan aytib bo'lmaydi. Har bir insonni individual deb hisoblash va uning xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Turli odamlar sizga boshqacha munosabatda bo'lishadi. Bu yerda boshqa shaxslarni odam savdosi qurbanbi bo'lishini kutmasligingiz kerak. Odamlar sizni qutqaruvchi sifatida ko'radi. Ba'zilar sizga shunday qarashlari mumkin, lekin ko'pchilik sizni istalmagan savollarni so'ragan odam sifatida ko'radi, bu esa allaqachon juda qiyin bo'lgan vaziyatni yanada og'irlashtirishi mumkin.

Agar jabrlanuvchi rolingiz yoki siz ishlayotgan tashkilot sababli dushmanlik yoki tajovuzkorlik bilan munosabatda bo'lsa, bu shaxsan sizga tegishli bo'lmasligi mumkin, Har bir jabrlanuvchi tergovga dushmanlik bilan munosabatda bo'lmaydi, lekin ko'pchilik buni qiladi. Yo'q buni o'z aybingiz yoki jabrlanuvchining aybi sifatida ko'rishingiz va dushmanlikning hech qanday ko'rinishini salbiy qabul

qilmasligingiz kerak. Agar siz o'zingizni shunday tutsangiz, jabrlanuvchi bilan kerakli tushunishga erisha olmasligingiz mumkin[2].

Agar siz javoblarni juda erta so'rashni va to'g'ridan-to'g'ri savollar berishni boshlasangiz, bu jabrlanuvchini begonalashtirishi mumkin. Agar siz jabrlanuvchining haqiqatiga ishonmasangiz, unga shubhali munosabatda bo'lsangiz, shubha bildirsangiz yoki ishonchsizlik alomatlarini ko'rsatsangiz, bu sizni kutilgan natijaga erishishingiz uchun yetarli bo'lmasligi mumkin.

Qanday bo'lmasin, bu yondashuvdan qoching. Muvozanatlari, uslubiy va bag'rikenglik bilan yondashing. nima bo'lishidan qat'iy nazar, haqiqatni ochib tashlashga shoshilmang. Siz hech qachon odam savdosi qurbanlari kabi uzoq muddatli zo'ravonlikni boshdan kechirgan odamlarni uchratmagan bo'lishingiz mumkin. Muloqot jarayonida jabrlanuvchining berayotgan ko'rsatmalariga bog'liq bo'lgan savollarni bergen holda undan o'zingiz istayotgan javobni olish uchun jabrlanuvchining ruxiy holatini o'rganib unga bosim bermaslik lozim. Agarda jabrlanuvchiga tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov, sud jarayonlarida yo'naltiruvchi savollar berilsa, ayblanuvchiga nisbatan beradigan ko'rsatmalari o'zgarib ketishi mumkin. Shuningdek jabrlanuvchining temperamentini aniqlagandan keyin u bilan muloqatga kirishganda kerakli bo'lgan savollarga javob olish osonroq bo'ladi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki jabrlanuvchi bilan suhbatda IIB hodimi aggressiv kayfiyatdaligini jabrlanuvchiga bildirib qo'ymasligi u bilan suhbatda hushmomila bo'lsagina o'zi uchun tezkor qiziqish uyg'otuvchi ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa kelgusida jabrlanuvchining IIB hodimlariga nisbatan bo'lgan ishonchini ortishiga va jabrlanuvchi sifatida olgan psixologik jarohatlarini yo'qolishiga olib keladi.

Odam savdosidan jabrlangan shaxslarni psixologiyasidagi o'zgarishlarni normal hayotga qaytarish maqsadida tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov, sud tergovi jarayonlarida va undan keyin uni normal hayotga moslashtirish maqsadida tibbiyot birlashmalari, shahar-tuman hokimligida mavjud bo'lgan hotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinnbosarlar, Istiqbolli avlod NNT bilan kelishilgan holda jabrlanuvchiga moddiy, ma'naviy, psixologiy yordamlarni ko'rsatish, oromohlarga yuborish, rehabilitatsiya markazlariga joylashtirish, mahalliy sayohatlarni tashqil qilib berish lozim. Shundagina odam savdosidan jabrlangan shaxslarning psixikasida sodir bo'lgan o'zgarishlarni oldini olishga va unga qarshi kurashda, oldingi hayot tarziga qaytarishda ijobiy natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.** USAID yordamida odam savdosidan jabrlangan 35 nafar shaxs O‘zbekistonga qaytarildi. “Istiqlol Avlodi” NNT rahbari Nazifa Kamalova maqolasi.. 22.07.2023 yil. migrant.uz/
- 2.** Posobie dlya spesialistov v sfere ugolovnogo pravosudiya po borbe s torgovley lyudmi. ORGANIZATSIYa OB’EDINENNYYIX NATSIY Nyu-York, 2010 god. 18 list. <https://www.unodc.org/documents/congress/background->